

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

YAKUBOV SAN'ATBEK RAVSHANBEKOVICH

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O'ZINI O'ZI BAND
QILGAN SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Yakubov San‘atbek Ravshanbekovich

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa
tortish mexanizmini takomillashtirish..... 3

Якубов Санъатбек Равшанбекович

Совершенствование механизма налогообложения индивидуальных
предпринимателей и самозанятых лиц..... 29

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Improving the Taxation Mechanism for Individual Entrepreneurs and the
Self-Employed..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 60

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.I.42.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YAKUBOV SAN'ATBEK RAVSHANBEKOVICH

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O'ZINI O'ZI BAND
QILGAN SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/Iqt5792 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» ta’lim axborot portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibodullayev Abrorjon Axrorjonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jalilov Sherzod Kaxramonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ergashev Ilxomjon Obodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

G.V.Plexanov nomidagi Toshkent Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.I.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100011, Toshkent shahri, Samarqand darvoza ko‘chasi, 60-uy, Tel.: (71) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Samarqand darvoza ko‘chasi, 60-uy, Tel.: (71) 244-79-34, Faks: (71) 244-79-34; e-mail: info@tkti.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «__» _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

D.N. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.J. Xo‘jamuradov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.A. Xusainov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro miqyosida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyati milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu toifa vakillari xizmatlar sohasi, kichik ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida faol ishtirok etib, aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlar manbalari turliligini oshirishga hissa qo'shmoqdalar. Bugungi kunda jahonda mehnat bozorida norasmiy bandlik ulushi yuqori bo'lib, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko'prog'i aynan norasmiy sektorda faoliyat yuritadi. Xususan, xalqaro tashkilotlarning baholashlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ish bilan band aholining taxminan 60 foizi norasmiy sektorda bo'lib¹, bu ko'rsatkich past daromadli mamlakatlarda 88,5 foizgacha bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi². Bu o'z navbatida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini samarali soliqqa jalb etilmaganini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda norasmiy sektorni rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon ilmiy amaliyotida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortilish masalasi keng o'rganilgan bo'lib, tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda amalga oshirilgan. Birinchidan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, ikkinchidan, ushbu subyektlarning byudjet daromadlari va barqarorligini ta'minlashdagi hissasi, uchinchidan, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishning eng maqbul mexanizmi va ularni nazorat qilishdagi soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish imkoniyatlari. Ilmiy izlanishlarda asosiy muammo sifatida ushbu toifa subyektlarining hisobot yuritish madaniyati pastligi, soliq to'lov tizimiga ishonch darajasining yetishmasligi va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishdagi ma'muriy to'siqlar ko'rsatib o'tilgan. Shu bois, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar soliq mexanizmlarini soddalashtirish, raqamlashtirish asosida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatini rasmiy iqtisodiyotga jalb etish bu boradagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish masalasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Soha bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, soddalashtirilgan soliq rejimlari va raqamli platformalar orqali hisobot yuritish tizimini joriy etish tadbirkorlik subyektlarini rasmiylashtirish va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2024-yilda 283,0 mingdan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar va 4,5 mlnga yaqin o'zini o'zi band qilgan shaxslar rasmiy soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olingan bo'lib, bu o'z navbatida soliq bazasining kengaytirish orqali budjetga qo'shimcha tushumlar olib kelgan. Amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, ushbu toifa subyektlarini soliqqa tortish jarayonida bir qator

¹ International Labour Organization (ILO), Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture (Third edition), Geneva: ILO, 2024

² International Labour Organization (ILO), Statement to the G-24 Spring Meetings 2025

fundamental, institutsional va ma'muriy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Bu esa soliq tushumlarining bajarilishini cheklab, norasmiy sektorning yuqori darajada saqlanishiga va davlat hamda tadbirkorlar o'rtasidagi ishonchning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish, norasmiy sektorni qisqartirish va budjetning barqaror daromad manbalarini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "«O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni ijrosi doirasida soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash bo'yicha belgilab berilgan chora-tadbirlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27- fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-247-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-138-son Farmonida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyatini soliqqa tortish hamda soliq tizimini takomillashtirish va norasmiy bandlikni qisqartirish masalalari bo'yicha bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shu jumladan, D. Blanchflower, L. Kaplow, C. Crawford, P. Aghion, J. Freedman, J. Millán, A. Twin, F. Andersson, V. Chari, A. Adams, J. Mirrlees, M. Stabile, E. Kirchler, R. Moffitt, S. Djankovlar o'zlarining ilmiy maqola hamda ishlarida soliqlar va boshqa ijtimoiy to'lovlar bilan bir qatorda turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ushbu toifa subyektlarga qay darajada ta'sir qilishini o'rganishgan³.

³ Blanchflower, D. (2004): "Self-Employment: More May Not Be Better," NBER Working Paper No. 10286. // Kaplow, Louis. 2021. "Market Power and Income Taxation." American Economic Journal: Economic Policy 13 (4): 329–54. // Crawford, C., and J. Freedman (2010): "Small Business Taxation," in The Mirrlees Review – Dimensions of Tax Design. Institute for Fiscal Studies. 3.15. // Aghion, P., U. Akcigit, M. Lequien & S. Stantcheva (2017), 'Do Entrepreneurship and Self-Employment Respond to Simpler Fiscal Incentives? Evidence from France,' Working Paper. // Freedman, J. (2001), 'Employed or Self-employed? Tax Classification of Workers and the Changing Labour market,' London School of Economics Discussion Paper. // Millán, J. M., Hessels, S. J., Thurik, R., & Aguado R. (2013). Determinants of job satisfaction: A European comparison of self-employed and paid employees. Small

MDH iqtisodchilaridan M. Balashevich, N. Kurochkina, I. Zolotareva, L. Nani, D. Kiyanenko, O. Izotova kabi tadqiqotchilar yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortishning amaliy jihatlari va ma'murchilik masalalari bo'yicha tadqiqotlarni olib borishgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan ushbu toifa subyektlarini soliqqa tortishda soddalashtirilgan tizimni qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy sabablari tadqiq etilgan⁴.

O'zbekistonlik olimlardan esa I. Niyazmetov, A. Agzamov, B. Sanakulova, D. Mutalov, A. Bozorov, A. Qurbonov, K. Islamov, Sh. Dusiyarov, D. Abdullaev, Z. Tillanazarov, Z. Ibragimov, N. Navruzova, P. Davletov, B. Uralov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishning ahamiyati va amaliyotiga bog'liq jihatlar o'rganilgan⁵.

Business Economics, 40(3), 651-670. <https://doi.org/10.1007/s11187-011-9380-1>. Twin, A. (2024). Sole proprietorship: What it is, pros and cons, and differences from an LLC. // Andersson F, Johansson D, Karlsson J, Lodefalk M, Poldahl A (2018) The Characteristics of Family Firms: Exploiting Information on Ownership, Kinship, and Governance Using Total Population Data. *Small Bus Econ* 51(3):539–556 // Chari, V., M. Golosov, and a. Tsyvinski (2002): "Business start-ups, the lock-in effect, and capital gains taxation," Mimeo. // Adams, A., J. Freedman & J. Prassl (2018), 'Rethinking Legal Taxonomies for the Gig Economy: Tax Law, Employment Law, and Economic Incentives,' Oxford Legal Studies Research Paper No. 12/2018. // Mirrlees, James A. 1994. "Optimal Taxation and Government Finance." In *Modern Public Finance*, edited by John M. Quigley and Eugene Smolensky, 213–31. Cambridge, MA: Harvard University Press. // Stabile, M. (2004), 'Payroll Taxes and the Decision to be Self-Employed,' *International Tax and Public Finance*, 11, 31–53. // Kirchler, E. (2007). *The Economic Psychology of Tax Behaviour*, Cambridge University Press. // Moffitt, R. 2002. "Welfare Programs and Labor Supply." In *Handbook of Public Economics*, Vol. 4, edited by Alan J. Auerbach and Martin Feldstein, 2393–430. Amsterdam: Elsevier. // Djankov, S., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). The Regulation of Entry. *Quarterly Journal of Economics*, 117(1), 1–37.

⁴Дергачев Николай Вячеславович, Основные причины возникновения теневой экономики в России, автореферат диссертации, Санкт-Петербург 2007, Казимов А.К. Reduction of the negative impact of the shadow economy as a factor of sustainable development of the region, региональные проблемы преобразования экономики, Санинский Р.А. Теневая экономика: сущностные характеристики и структурные признаки, Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева No 3, том 1, 2018, Юнусова Патимат Сулеймановна, Сущность теневой экономики в современных условиях, «Экономика и бизнес», 2014, А. А. Блинова, Актуальные проблемы противодействия теневой экономике в России, Экономика. право. общество. 2020;(4):114-118., А.И. Балашов, Т.Д. Имамов. Теневая экономика: Понятие и методы оценки, Экономические Науки, No 4 / 2013, П.Г.Росолов, Основные подходы к определению доли теневого сектора в экономике, TERRA ECONOMICUS, 2011 Том 9 No 3 Часть 3, Л. Х. Боташева, К. С. Саркисян Выявление и оценка теневой экономики: методологический аспект, Экономика и управление, No 5/2018

⁵И.М.Ниязметов. Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизимини барқарорлигини таъминлаш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. — Тошкент, 2018.- 231-б. Агзамов А. Т. (2019). Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, б.17-22. // Санакулова Б. Р. (2016). Кичик тadbirkorлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш. Тошкент: Докторлик диссертацияси автореферати, 30 б. // Муталова Д. М. (2010). Солиққа тортишнинг содалаштирилган тартибини такомиллаштириш [Докторлик диссертацияси, Ўзбекистон Республикаси Банк-Молия Академияси]. Тошкент, Ўзбекистон. // Бозоров А. А. (2019). Декларация асосида солиқ солинадиган даромадлар ва уларни солиққа тортишни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши автореферати. // Курбанов, А. А. (2020). Ўзбекистонда ўзини ўзи банд қилганларнинг ҳуқуқий мақоми ва солиқ режимлари. Тошкент давлат юридик университети: Фан номзоди диссертацияси иши автореферати. // Исламов, К. С. (2024). Иқтисодийда якка тартибдаги тadbirkorларни солиқ қарзини ундириш механизмини такомиллаштириш ва солиқ қарзини ундиришда инновацион технологиялар жорий этиб уни янги босқичга олиб чиқиш тартиби.

Academic Research in Educational Sciences, 5,(5), 627. https://t.me/ares_uz // Дусяров, С. Х. (2024). Analysis of the current state of taxation of individual entrepreneurs and self-employed persons in Uzbekistan. *JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 10(5), 88–95. // Абдуллаев, Д. А. (2025). Turnover tax regime and its

Biroq yuqorida keltirib o'tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortishning ma'lum bir soliq va moliyaviy mexanizmlar tadqiqiga e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda bu ikkala toifadagi subyektlarini soliqqa tortilishining nazariy, uslubiy va amaliy muammolari alohida va yaxlit ilmiy tadqiqot obyekti sifatida kompleks o'rganilmagan. Bugungi kunda davlat byudjetidan turli yo'nalishdagi xarajatlarni moliyalashtirishga ehtiyoj oshib borayotgan bir sharoitda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliqqa tortish muammosini alohida tadqiqot doirasida chuqur o'rganish zarur ilmiy ehtiyojlardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyihalar doirasida tayyorlangan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

individual tadbirkorlik va yakka mehnat faoliyatining bandlikka ta'sirini soliq mexanizmi orqali boshqarishga doir nazariy qarashlar;

individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslarini o'rganish;

yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmining rivojlanish bosqichlari;

o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmidagi muammolar tahlili;

yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi va undagi bo'shliqlarni bartaraf etish orqali takomillashtirish;

o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishning ilg'or xorij tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

impact on the activities of small business entities. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. // Тилланазаров, З. (2023). Peculiarities of taxing the income of individual entrepreneurs. Science and Innovation, 1(18), 135–141. // Ибрагимов, З. И. (2025). Improving the system of taxation of population income in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. // Наврузова, Н. (2024). Issues of taxation of entrepreneurs and self-employed persons. EJPCM. // Давлетов, П. Т. (2024). Analysis of the current state of taxation of individual entrepreneurs and self-employed persons. International Conference on Multidisciplinary Studies in Social Sciences (конференция материаллари). // Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. К. (2023). Taxation of individual entrepreneurs as a form of state regulation of self-employment. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimli tahlili, iqtisodiy-statistik tahlil, kuzatish, korrelyatsion-regressiya ekonometrik tahlili va taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, daromadining katta qismini faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirishda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilash taklif etilgan;

belgilangan tartibda litsenziya varaqasi mavjud bo'lganda yengil avtotransportda yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyatini o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritish asoslangan;

tadbirkorlik muhitining shaffofligini oshirish, soliq to'lash va hisobot topshirish jarayonlarini yagona raqamli platforma asosida soddalashtirishda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etish taklif etilgan;

bozorlar va savdo majmualarida faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilari uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasini soliq davrida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida belgilash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkasini ular daromadiga nisbatan foizlarda belgilash mexanizmi joriy etilganidan so'ng, soliq yuki iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan bo'lib, tadbirkorlar uchun adolatli soliq to'lash imkoniyati yaratiladi;

yengil avtomobillarda respublika bo'yicha yo'lovchi tashish faoliyatidagi cheklovlar sababli norasmiy faoliyat yuritayotgan shaxslarni rasmiy sektorga jalb etish imkoniyati yaratildi.

yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etilishi tadbirkorlikdagi ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirib, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va natijada yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish hamda soliq tushumlari va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi;

bozorlarda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilari uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish soliq yukidagi nomutanosiblikni kamaytirib, rasmiy bandlikni oshirish va ijtimoiy soliq tushumlarini barqarorlashtiradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi mehnatni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy qarashlarni o'rganilganligi, xalqaro soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalar tadqiq etilganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi hisobotlari va statistik ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishini bajarish davomida olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga oid davlat siyosatini takomillashtirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va budjet parametrlarini belgilashda foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu natijalar soliqqa oid qonun va qonunosti hujjatlarni yangilash, soddalashtirilgan soliq rejimlarini joriy etish hamda maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirishni rivojlantirish, soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirish va ijtimoiy himoyani ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu natijalar iqtisodiyot va moliya sohasidagi oliy o'quv yurtlarida «Makroiqtisodiyot», «Kichik biznesni soliqqa tortish» va «Soliq siyosatini shakllantirish» kabi fanlarni o'qitishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Bu esa tadbirkorlik faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, daromadining katta qismini faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirishda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 16/1-104255-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun soliq yukini sezilarli darajada kamaytiradi, ular daromadining katta qismini faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirish imkonini beradi;

belgilangan tartibda litsenziya varaqasi mavjud bo'lganda yengil avtotransportda yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyatini o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 16/1-104255-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2025-yilda yo'lovchilarni tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi 76 646 ta jismoniy shaxslar o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida yangidan ro'yxatga olingan;

tadbirkorlik muhitining shaffofligini oshirish, soliq to'lash va hisobot topshirish jarayonlarini yagona raqamli platforma asosida soddalashtirishda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 16/1-104255-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadbirkorlar uchun

faoliyatni rasmiylashtirishdan tortib soliq to'lash va hisobot topshirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni yagona raqamli platforma orqali amalga oshirish imkoniyati yaratilgan;

bozorlar va savdo majmualarida faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollanma ishchilari uchun belgilangan ijtimoiy soliq stavkasini soliq davrida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida belgilash yuzasidan bergan taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 19-sentabrdagi 16/1-104255-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, soliq solishning adolatlilik tamoyili ijrosi ta'minlanadi. Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish darajasini oshirishga, tadbirkorlar uchun soliq yukining barqaror va prognoz qilinadigan tizimi shakllanishiga hamda soliq solishning adolatlilik tamoyili ijrosi ta'minlanishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, mehnat daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini belgilab beruvchi sharoitlar tavsiflangan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik faoliyatini soliqqa tortishning nazariy-fundamental asoslari**"ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda individual tadbirkorlik va yakka mehnat faoliyatini soliqqa tortishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, soliq mexanizmining fundamental asoslari va takomillashtirish borasidagi ilmiy va nazariy qarashlar, xorijiy mamlakatlarda ushbu toifa subyektlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozoridagi o'zgarishlar, ayniqsa, individual tadbirkorlik va yakka mehnat faoliyati, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Bu o'z navbatida ushbu faoliyat turlarini soliqqa tortishdagi yondashuvlarni ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini hisobga olgan holda belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, individual faoliyat tadbirkorlik qobiliyati va kasb-hunarga ega aholi uchun rasmiy faoliyat yuritish imkoniyatini yaratib bir tomondan ishsizlik darajasini qisqartirish orqali davlat byudjetiga ijtimoiy himoya bosimini kamaytirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan ular tomonidan rasmiy sektorda


yaratilgan qo‘shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulotning oshishiga va soliq bazasini kengaytirish orqali byudjet tushumlarini oshirishga ham yordam beradi.

Shu bois, bunday faoliyatlarni soliqqa tortishning fundamental asoslarini aniqlash, ularni to‘g‘ri tartibga solish va maqsadli yondashuvni ishlab chiqish zarur (1-rasmga qarang).

1-rasmdan ko‘rish mumkinki, har qanday faoliyat va soliq obyektini soliqqa tortish mexanizmini loyihalashda, avvalambor, fundamental asoslarini to‘g‘ri belgilab olish zarurligi ta’kidlanadi.

Umumlashtirib aytganda, individual faoliyat bilan shug‘ullanayotgan shaxslarni soliqqa tortishda adolat va tenglik tamoyillarini amalga oshirish uchun davlat soliq siyosatini tartibga soluvchi mexanizmlarni soddalashtirishi, faoliyat turlarini real baholash va ijtimoiy ahamiyatli holatlarni e’tiborga olish kabi yo‘llarni tanlashi lozim.

Xalqaro tajriba shundan dalolat beradiki, individual faoliyatni soliqqa tortish tizimini ijtimoiy himoya bilan bog‘lash yo‘lidagi sa’y-harakatlar ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda va bu borada turli modellar sinovdan o‘tkazilgan Braziliyadagi MEI (Microempreendedor Individual) tizimi eng muvaffaqiyatli misollardan biri bo‘lib, u yakka tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan soliq va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini birlashtirgan. Bu tizim orqali fuqaro soliq to‘lar ekan, avtomatik tarzda pensiya, tibbiy yordam va boshqa ijtimoiy xizmatlar uchun huquqqa ega bo‘ladi. Braziliya tajribasi shuni ko‘rsatdiki, to‘lov miqdorining nisbatan pastligi va to‘lov orqali aniq ijtimoiy foyda olish imkoni rasmiylashuv darajasini oshirgan⁶.



1-rasm. Individual faoliyatni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari⁷

⁶ Brazil Federal Revenue. (2021). *MEI Statistical Report*.

⁷Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Yevropa mamlakatlarida, xususan, Fransiyadagi Auto-entrepreneur tizimida soliq va ijtimoiy to‘lovlar yagona raqamli platforma orqali boshqariladi. Bu modelda tadbirkorlar o‘z daromadlarini onlayn tarzda deklaratsiya qilish bilan birga pensiya va tibbiy sug‘urta badallarini ham avtomatik tarzda to‘laydi⁸.

Tadqiqot davomida qilingan tahlillardan ko‘pgina mamlakatlarda yakka tartibdagi tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun soddalashtirilgan soliq rejimlari joriy etilgani ma’lum bo‘ldi. Bu rejimlar, asosan, aylanmaga nisbatan belgilanadi va progressiv yoki bir xil stavkalar asosida amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmlari tanqidiy tahlili”** deb nomlanib, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmining rivojlanish bosqichlari va amaldagi mexanizmining tanqidiy tahlili, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmidagi muammolar tahliliga bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy sektorni rivojlantirish jarayonida jismoniy shaxslarning mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishiga imkon beradigan huquqiy va institutsional mexanizmlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Individual tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini rivojlanishini umumlashtirib quyidagi rasmda ko‘rsatilgan bosqichlarga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish mexanizmining rivojlanish bosqichlari⁹


Tahlillar mazkur davrdagi soliq siyosati va ijtimoiy to‘lov tizimi mamlakatda tadbirkorlik muhitini rasmiylashtirish, ijtimoiy adolat va byudjet barqarorligini

⁸ France URSSAF. (2023). *Auto-Entrepreneur Portal and Statistics*.

⁹ Agzamov A.T. (2019) Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. b.17-22.

ta'minlash, shuningdek raqamlashtirish orqali soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilishga xizmat qildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini umumbelgilangan soliqqa tortish tartibi bilan uyg'unlashtirish maqsadida 2018 — yilda qabul qilingan soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi¹⁰ hamda 2020 — yil kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan ularni soliqqa tortish tartiblarini belgilashda jami yillik daromadi chegarasi bo'yicha bir qator yangi qoidalar kiritildi. Yangi tartibga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda ularning jami yillik daromad miqdori asosiy mezon sifatida qabul qilindi.



Izoh: 1.DS – daromad solig'i. 2.QBS – Qat'iy belgilangan soliq. 3.FS/QQS – Foyda solig'i va QQS. 4.AOS – Aylanmadan olinadigan soliq

3-rasm. O'zbekistonda amalda bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmi¹¹

3-rasmdan ko'rish mumkinki, yakka tartibdagi tadbirkorlar agar qat'iy belgilangan stavkada soliq to'lashni tanlasalar, ular uchun muayyan engilliklar belgilangan.


¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida" PF-5468-son Farmoni.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining normalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorning jami yillik daromadi 1 mlrd soʻmdan oshib ketgan taqdirda, ular uchun faqat umumiy tartibdagi va soddalashtirilgan tartibda foyda soligʻi hamda qoʻshilgan qiymat soligʻini toʻlash majburiyati boʻladi. Bu esa, aslida, katta aylanmaga ega boʻlgan subyektlarni yuridik shaxslarga oʻtish yoki soliq yukini adolatli tarzda koʻtarishga majbur etuvchi mexanizmdir.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortishda joriy etilgan yangi tartiblar qisqa muddatda samarali mexanizm sifatida ishlagan boʻlsa-da, ularning uzoq muddatli taʼsiri va barqarorligini taʼminlash uchun soliq stavkasi, imtiyozlar, hisobot mexanizmi va raqamlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarur.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik oʻzini oʻzi band faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini baholashda avvalambor mamlakatdagi bandlik va norasmiy bandlik holatini tahlil qilish va yakka tartibdagi tadbirkorlar va oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarning bundagi oʻrnini baholash muhim hisoblanadi.



4-rasm. Oʻzbekistonda mehnat bozori tarkibi tahlili¹²

4-rasmda 2022–2024-yillar davomida iqtisodiy faol aholi, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oʻzini oʻzi band qilganlar, daromad soligʻi toʻlovchilari hamda norasmiy bandlik darajasidagi oʻzgarishlar aks ettirilgan.

Maʼlumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, iqtisodiy faol aholi soni 2022 — yilda 15,0 mln kishini tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilning uchinchi choragi holatiga kelib bu koʻrsatkich 16,8 mln kishigacha ortib, mutanosib ravishda bandlik boʻyicha strukturadagi oʻzgarishlarga turtki bergan.

¹² Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlil jarayonida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni ham bir maromda o‘sgani kuzatiladi. 2022-yilda 238,2 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa 2024-yilga kelib 283,9 mingtaga etgan. Bu o‘shish mutloq qiymatda katta bo‘lmasa-da, yakka tartibdagi tadbirkorlik sektori bandlikni ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega toifa sifatida aholi o‘rtasida tadbirkorlik faolligining o‘shishini ifoda etadi. Biroq ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushi 2022-yilda taxminan 1,58 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 1,77 foiz atrofida qolgan. Ya’ni, yakka tartibdagi tadbirkorlarning umumiy iqtisodiy faol aholiga nisbatan hissasi nisbatan barqaror, lekin past darajada qolmoqda.

Shu bilan birga, o‘zini o‘zi band qilganlar soni 2022-yilda 1,6 mln kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 4,1 mln kishiga etgan. Bu ko‘rsatkich yakka tartibdagi tadbirkorlar sonidagi o‘shishga nisbatan ancha jadal sur‘atlarda oshganini ko‘rsatadi.

Grafikdagi yana bir muhim ko‘rsatkich norasmiy bandlik darajasining pasayishiga alohida e’tibor qaratish lozim. 2022-yilda 53,8 foiz bo‘lgan ushbu ko‘rsatkich 2024 - yilga kelib 41,7 foizgacha tushgan. Bu, shubhasiz, soliq ma‘murchiligining takomillashtirilishi, bandlikka oid rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomini belgilashga oid choralari samarasi sifatida qaralishi mumkin¹³.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, har qancha norasmiy bandlik darajasining pasayishi ijobiy tendensiya hisoblansa-da, bu jarayonda yakka tartibdagi tadbirkorlardan ko‘ra o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning roli yuqori bo‘lib kelmoqda. Shu bois, davlat siyosatida yakka tartibdagi tadbirkorlarning faolligini oshirish va ularni norasmiy mehnat resurslarini rasmiy sektorga jalb etishda kuchli vosita sifatida faollashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlarning hududiy tarkibi, sohaviy ixtisoslashuvi va ular orqali band qilingan shaxslarning ijtimoiy himoya tizimiga bog‘liqligi yuzasidan alohida tahlillar olib borish mazkur segmentning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikdagi real rolini aniqlash imkonini yaratadi¹⁴.


O‘zbekistonda iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta‘minlash, aholi bandligi darajasini oshirish, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish hamda norasmiy sektor ulushini qisqartirish maqsadida mehnat bozorida an’anaviy ish bilan bandlik shakllaridan tashqari, mustaqil va erkin faoliyat yurituvchi shaxslarning roli oshib bormoqda. Yangi turdagi iqtisodiy subyektlar sifatida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar instituti shakllana boshladi va ushbu toifa aholining norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy mehnat munosabatlari tizimiga o‘tishida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

¹³ Almaridonov, M. I., Ilxamov, Sh. I., Yusupov, O. A., Sherov, S. R. Biznesni soliqqa tortish. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. URL: renessans-edu.uz

¹⁴ Navro‘zova, F. (2024). Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(10), 150–158. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp150-158>

Mamlakatdagi institutsional va iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquqiy maqomini aniqlash, soliq yukini yengillashtirish, hisobot yuritishda soddalik va raqamli xizmatlarga keng kirish imkonini ta’minlash bo‘yicha bir qator normativ-huquqiy choralar ko‘rilmogda. Xususan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati tasdiqlanib, faoliyat turlari qamrovini mehnat bozoriga bosqichma-bosqich moslashtirish choralari ko‘rib kelinmogda.

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish tizimi 2020 – 2025-yillar mobaynida bosqichma-bosqich takomillashtirilib, bosqichli soliq siyosati va ijtimoiy kafolatlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlantirildi. Mazkur mexanizmning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda rasmiy bandlikni kengaytirish, norasmiy sektor ulushini qisqartirish va aholi faolligini qonuniy asosda kengaytirish maqsad qilingan. Ushbu subyektlar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini rivojlanishi har bir bosqichda muayyan huquqiy-iqtisodiy mezonlarga asoslangan holda shakllantirilgan.



5-rasm. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmining rivojlanish bosqichlari¹⁵

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 2024-yilda amal qilgan tahriri normalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xususan, 2024-2025-yillarda bir qator muhim normalar qabul qilindi. Eng katta yangiliklardan biri bu o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning yillik daromadi 100 mln so‘mdan kam bo‘lsa, u holda subyektning daromadi soliq solinmaydigan daromad sifatida qaraladi. Agar o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning yillik daromadi 100 mln so‘mdan oshsa, u holda u yakka tartibdagi tadbirkor uchun belgilangan normalar doirasida soliq to‘lash majburiyati joriy etildi. Bu tartib o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning yillik mehnat daromadini belgilangan chegaralaridan kelib chiqib aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti O‘zbekistonda nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lganligi sababli ushbu toifani soliqqa tortishda qo‘llanilayotgan mexanizmlar hali ham to‘liq shakllanmagan bo‘lib, bir qator fundamental, institutsional va ma‘muriy muammolar mavjud¹⁶.

Xulosa qilib aytganda, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini samarali tashkil etish uchun mavjud huquqiy asoslar yetarlicha ilg‘or va zamonaviy bo‘lsa-da, uning amaldagi tatbiqi ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani aniqlashtirish, davlat organlari o‘rtasidagi institutsional muvofiqlikni ta‘minlash, raqamli platformalarni takomillashtirish, shuningdek, aholi o‘rtasida huquqiy va soliq savodxonligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Zero, o‘zini o‘zi band qilganlar sektori — iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, yuqori salohiyatga ega segmenti hisoblanadi.


Dissertatsiyaning **“Yakka tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida yakka tadbirkorlikni soliqqa tortish mexanizmidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish va samaradorligini oshirish yo‘llari hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishning ilg‘or xorij tajribasidan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi mexanizmi yuzasidan amalga oshirilgan tahlillar ularni soliqqa tortishning hozirgi tizimida bir qator fundamental, institutsional va amaliy muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu o‘z navbatida ushbu muammolarni bartaraf etish va soliq tizimining samaradorligini oshirish yo‘llarini ilmiy asosda belgilashni taqozo etadi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasida yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish mexanizmi bilan bog‘liq muammolar va yechimlarini quyidagicha jamlash mumkin (6-rasmga qarang). Tahlillar asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi bilan bog‘liq

¹⁶ Safarova N. A. (2024). O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tartibi. Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari, 1(4), 568–573. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11398772>

muammolarni uch asosiy guruhga fundamental, institutsional va ma'muriy yo'nalishlarga ajratish mumkin.



6-rasm. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari¹⁷

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dastlab yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishdagi fundamental muammolarni va institutsional muammolarni bartaraf etish zarur hisoblanadi.

Bunda 2026-yil 1-yanvardan boshlab yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi.

Chunki, yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortishda qo'llanilayotgan qat'iy belgilangan soliq mexanizmlari — xususan, daromad solig'i va aylanmadan olinadigan soliq kabi tizimlardagi soliq stavkalari regressiv xususiyatga ega bo'lib, bu jarayon soliq yukining odatda qabul qilingan adolat va samaradorlik tamoyillariga mos kelmasligini ko'rsatadi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, daromad solig'ining qat'iy belgilangan stavka asosida soliqqa tortish mexanizmi Toshkent shahri va boshqa hududlar kesimida ham regressiv xususiyat kasb etayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xususan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasi oyiga 0,7 – 1,0 mln so'm miqdorida belgilangan bo'lib, agar bu miqdorlarni yillik hisobda

¹⁷ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

daromadga nisbatan foizda hisoblasak, 10,0 mln so‘mlik yillik daromadda soliq yuki 84 – 120 foizni tashkil etadi. Bu esa shunchaki soliq yuki emas, balki tadbirkorni iqtisodiy faoliyatdan voz kechish yoki faoliyatini yashirin holda amalga oshirishga olib keladigan og‘ir yukdir. Daromad 100,0 mln so‘mga etganda esa soliq yuki 8,4 – 12 foiz atrofida bo‘lib qoladi. Boshqa hududlarda ham xuddi shunday tendensiya kuzatilib, chakana savdo va boshqa faoliyat turlari uchun qat‘iy belgilangan soliq stavkasi nisbatan past belgilangan bo‘lsa-da, natijada hududlardagi kichik daromadli yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq yuki nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.

1-jadval

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tartiblari va stavkalari tahlili¹⁸

Daromad darajasi	Daromad solig‘i								Deklaratsiya asosida daromad solig‘i (12%)
	Qat‘iy belgilangan stavkada (QBS) - DS								
	Toshkent shahri (soliq yuki %da)				Boshqa hududlar (soliq yuki %da)				
	Chakana savdo (bir oyiga 700-1000 ming so‘m)		Boshqa faoliyat turlari (bir oyiga 230-330 ming so‘m)		Chakana savdo (bir oyiga 265-800 ming so‘m)		Boshqa faoliyat turlari (bir oyiga 65-200 ming so‘m)		
10000	84.0	120.4	27.6	39.6	31.8	96.0	7.8	24.0	12
20000	42.0	60.0	13.8	19.8	15.9	48.0	3.9	12.0	12
30000	28.0	40.0	9.2	13.2	10.6	32.0	2.6	8.0	12
40000	21.0	30.0	6.9	9.9	8.0	24.0	2.0	6.0	12
50000	16.8	24.0	5.5	7.9	6.4	19.2	1.6	4.8	12
60000	14.0	20.0	4.6	6.6	5.3	16.0	1.3	4.0	12
70000	12.0	17.1	3.9	5.7	4.5	13.7	1.1	3.4	12
80000	10.5	15.0	3.5	5.0	4.0	12.0	1.0	3.0	12
90000	9.3	13.3	3.1	4.4	3.5	10.7	0.9	2.7	12
100000	8.4	12.0	2.8	4.0	3.2	9.6	0.8	2.4	12
Daromad darajasi	Aylanmadan olinadigan soliq (AOS)								Advalor stavka AOS (4%)
	Qat‘iy belgilangan stavkada (QBS) - AOS								
Jami daromad 500 mln.so‘mgacha bo‘lgan YaTT - 30 mln.so‘m (soliq yuki %da)									
200000	15								4
300000	10								4
400000	7.5								4
500000	6								4
Jami daromad 500 mln.so‘mdan yuqori bo‘lgan YaTT - 40 mln.so‘m (soliq yuki %da)									
600000	6.7								4
700000	5.7								4
800000	5								4
900000	4.4								4
1000000	4								4

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ixtiyoriy ravishda rasmiy sektorda ishlashini rag‘batlantiruvchi raqobatbardosh va shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmat va mahsulot turlarini ko‘paytirish hamda ichki bozorda raqobatni oshirishga xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

¹⁸ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) uchun soliq stavkasini 1 foiz qilib belgilashning iqtisodiy samarasi prognozi¹⁹

Ssenariy	YaTTlardan qamrab olinganlari soni (taxmin)	O'rtacha aylanmasi (UZS)	Jami aylanma (mlrd UZS)	Soliq (1%) (mlrd UZS/yil)	Bazaviy soliq (4%) (mlrd UZS/yil)	Soliq o'zgarishi (1% vs 4%) (mlrd UZS/yil)	YaTTlar ixtiyorida qoladigan o'rtacha soliq bir YaTTga, mln UZS)
Konservativ (A) — 60% qamrov, avg = 50 mln	170 319	50,0 mln	8 516,0	85,0	341,0	-256,0	≈1,5 mln UZS
Realistik (B) — 80% qamrov, avg = 200 mln	227 092	200,0 mln	45 419,0	454,0	1 817,0	-1 363,0	≈6,0 mln UZS
Optimistik (C) — 100% qamrov, avg = 500 mln	283 866	500,0 mln	141 933,0	1 419,0	5 677,0	-4 258,0	≈15,0 mln UZS

Taklifning yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ta'sirini turli ssenariylarda qilingan tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Konservativ ssenariyda soliq tushumlari nisbatan kichik bo'ladi, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa soliqni tejab, kam miqdorda qo'shimcha daromadga ega bo'ladi. Realistik ssenariyda soliq tushumlari sezilarli darajada ko'payib, davlat byudjetini to'ldirish bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham yillik o'rtacha saqlanadigan daromad oshadi. Optimistik ssenariyda, soliq tizimi davlat va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham katta iqtisodiy samara keltirishi mumkin, bu esa tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zaruriy asos yaratadi.


Shuningdek o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishda ham bir qator yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilishi zarur. Ushbu istiqbolda amalga oshirilgan tahlillar o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini isloh qilinishi zarur bo'lgan jihatlarini fundamental, institutsional va ma'murchilik yo'nalishlariga ajratgan holda o'rganish imkonini beradi. Quyida (7-rasmga qarang) ushbu muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'nalishlari jamlangan.

Quyidagi rasmdan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortish mexanizmida mavjud muammolar tarkibiy jihatdan fundamental, institutsional va ma'murchilikka oid bo'lib, ushbu bo'shliqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishda islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish muhim. Bunda avvalambor, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari qamrovini kengaytirish muhim masala

¹⁹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hisoblanadi. Bunda, avvalambor, yashirin iqtisodiyot yuqori boʻlgan faoliyat turlarini rasmiy sektorga jalb qilishdan boshlash zarur hisoblanadi.

